



OGAHIY HAYOTI VA IJODI-YOSHLAR TARBIYASI UCHUN NAMUNA.

Yakubova Sitora Sharifovna

Annotatsiya. Bu maqolada Ogahiy hayoti , u olib borgan ilmiy izlanishlar, qilgan tarjimalari va tarixiy asarlari haqida gap borib, Ogahiy yashagan davrda Xorazmda vujudga kelgan adabiy muhit, bu davrda sodir bo`lgan voqealar va adabiy muhit shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan Muhammad Rahimxon Feruz davri voqealari haqida bayon etilgan.

Kirish so`zlar: Ishq, adabiy muhit, mirob, tarixiy asarlar, lirika, Muhammad Rahimxon Feruz, tarjima mahorati,

Mustaqil O`zbekistonimiz diyorida minglab buyuk allomalar , shoirlar-u olimlar yetishib chiqqan. Shu jumladan, shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy xalqimiz tarixida o`ziga xos o`ringa ega bo`lgan serqirra iste`dod sohibidir. Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog`ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. “Biz Xivada yashovchi yuz toifasidan bo`lgan Amir Eshimbiyning avlodlaridandirmiz”- deya shoirning o`zi yozib qoldirgan. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siymosi amakisi Munis qo`lida tarbiya topdi. Xiva madrasalarida tahsil olib, arab, fors va turk tillarini puxta o`rgangan. U mohir xattot bo`lib, kufiy, nasta`liq , xatti shekasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatida ishtirok etgan. Sharq klassik asarlari, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini qunt bilan o`rgangan. 1826-yildan sipohiylik harbiy xizmatda bo`lgan davridayoq elga shoir bo`lib tanilgan edi. Ogahiyning asl ismi Muhammad Rizo Erniyozbiy o`g`li bo`lib, u amakisi va ustoz Shermuhammad Munis Xorazmiy ila bamaslahat o`ziga Ogahiy taxallusini oladi. Shoirning taxallusi ham o`zi aytmiş ogohlik bilan xushmavzundir.

Ne tong ogoh bo`lsa,Ogahiy, ishqing siridin kim,

Onga behuda ermas osmondin bu laqab paydo.

Shu tariqa Xiva adabiy muhitida Muhammad Rizo Ogahiy nomi bilan mashhur bo`lgan bu shaxs xon saroyida mirza bo`lib ishlay boshlaydi. Xiva xoni Olloqulixonning Xurosonga qilgan safarida vabo kasali tarqalib, 1829-yilda amakisi, mashhur shoir Munis 51 yoshida vafot etadi. Adabiyot maydoniga shitob bilan kirib kelayotgan Ogahiy hayotida bu voqea katta yo`qotish bo`ldi. 20 yoshida Xiva xoni Olloqulixon amakisi o`rniga Ogahiy mirob(suv ishlari boshqaruvchisi) etib



tayinladi. Asosiy tirikchiligi yerdan, sug`orma dehqonchilikdan iborat bo`lgan Xorazmda miroblik hamisha ulug` mansab hisoblangan. Shu davrdan Ogahiy davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati boshlanadi. U davlat ishlari bilan mashg`ul bo`lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to`xtatmadi. 1845-yil Ogahiy ayni kuchga to`lgan 36 yoshida ariq yoqasida otdan yiqilib oyog`i qattiq shikastlanadi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo`ldoshidan ham ajraladi. 1847-yilda Madaminxonga hamroh bo`lib, Ko`hna Urganchga boradi. U yerda Xonobod yopi qaziladi va bog`lar barpo etiladi. Ogahiy o`z iqtidori, ishbilarmonligi tufayli hayotning eng oliy ne`mati bo`lmish suv va undan foydalanish ilmini mukammal egallab, ulkan davlat arbobiga aylanadi. Ammo Ogahiy 1857-yili kasalligi sababli o`z xoxishi bilan bosh miroblik vazifasidan iste`foga chiqadi. Kuchli iroda, hayotni sevish Ogahiyning ijodga, izlanishga undaydi. Ogahiy tarixnavis olim sifatida beqiyos iz qoldirgan ulkan ilm sohibidir. Amakisi yozib ulgurmagan “Firdavs ul-iqbol” (“Baxt bog`i”) asarining Muhammad Raximxon I xonligi davriga bag`ishlangan qismini (1813-1825-yillar) Olloqulixon buyrug`i bilan 1842-yilda yozadi. U ustozini Munis tugatishga ulgurmagan Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning “Ravzat us-safo” asarining 1-jildi tarjimasini amalga oshiradi. Ogahiy tarixchi olim sifatida qilgan izlanishlari natijasida 5ta tarixiy asarning muallifi bo`ldi. Bular: “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Gulshani davlat” va “Iqboli Firuziy” nomli kitoblardir. “Riyoz ud-davla” (“Saodat bo`stonlari”) 1844-yilda yozilgan bo`lib unda Olloqulixon hukmronligi (1825-1842) davridagi Xorazmda yuz bergan voqealar tasvirlanadi. “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog`i”) 1845-1846-yillarda yozilgan bo`lib, Rahimqulixon hukmronligi (1843-1846) vaqtidagi voqea hodisalar aks ettiriladi. 1856-yilda yozilgan “Jome ul-voqeoti Sultoniy” (“Sultonlik voqealar to`plami”) da Muhammad Aminxon, Abdullaxon, Qutlug`murodxon (1846-1855) davrida bo`lib o`tgan voqealar bayoni berilgan. Sayid Muhammadxon hukmronligi davrida (1856-1865) Xorazm hayotida sodir bo`lgan voqealar “Gulshani davlat” 1865-yilda yozilgan kitobida o`z aksini topgan. “Iqboli Firuziy” yoki “Shohidi Iqbol” deb nomlangan asar 1873-yilda yozilgan bo`lib, Muhammad Rahimxon II hukmronligi davridagi voqealar bayoniga asoslangan.

Mazkur asarlarda Xiva xonligi hududida yashagan o`zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq xalqlarining ijtimoiy hayotini, Xiva xonligining Buxoro, Qo`qon xonliklari, Eron, Hindiston, Afg`oniston bilan bo`lgan munosabatlarini, o`zaro urushlarni, Rossiya bilan bo`lgan savdo aloqalarini, xon va beklar jabr-zulmiga qarshi ko`tarilgan xalq qo`zg`olonlarini, xalqning urf-odatlarini keng miqyosda yoritib berilgan. V.V. Bartold mazkur XIX asr o`zbek tarixchilarining asarlariga



katta baho berib yozadi: “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kamchiliklari bo`lmasin, tarixiy voqealarni bayon etishi va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko`pligi jihatidan Qo`qon va Buxoro xonliklari tarixiga doir bizgacha yetib kelgan hamma asarlarni o`zidan ancha orqada qoldiradi”. V.V.Bartoldning bu fikriga ko`ra, Ogahiyning beshta tarixiy asari, Shermuhammad Munis tamomlay olmay qoldirib ketgan “Firdavs-ul iqbol” asari o`zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlarining tarixini o`rganishda katta ahamiyatga egadir. O`rta Osiyo respublikalarining tarixchilari o`z xalqlarining XIX asr tarixini yaratgan vaqtlarida, albatta, Munis , Ogahiy, Bayoniylarning tarixiy asarlariga murojaat qiladilar va manba sifatida ulardan foydalanadilar. Ogahiy yaratgan tarixiy asarlar ilmiy faktlar, ma`lumotlarga boyligi, tarixiy va siyosiy voqealarning ancha xolisona bayon etilgani bilan ajralib turadi. O`zaro qonli urushlar toj-u taxt atrofida kurash, saroy janjallari va xususan, xonlar zamonidagi Xorazm xalqining notinch ahvoli , mehnatkash ommaning uqubatli hayoti, shuningdek, madaniy hayot, ilm-u ma`rifat vakillarining turmushi Ogahiyning tarixiy asarlarida real ifodalangan.

Ogahiy yashagan davrda Xivada shunday bir adabiy muhit yaratildiki, bu beixtiyor Muhammad Rahimxon II nomi bilan bog`liq. Tarixdan ma`lumki har bir davlat hukmdorlarining ko`pchiligi adabiyot, tarixnavislik bilan shug`ullangan. Xususan, Xiva xonligida Abulg`oziy Bahodirxon , Muhammad Rahimxon II ham bu ishlar bilan shug`ullangan. 1863-yil Feruzning otasi Sayyid Muhammadxon vafot etadi. 19 yoshli Muhammad Rahim Xiva xonligi taxtiga ko`tariladi. Uning saltanat sohibi bo`lishi toj-u taxt uchun kurashlar , xunrezliklar bilan bilan emas, balki saroy ahllarining “shuaro va fuzalo xayli” ning xohish irodasi bilan amalga oshdi. Bu holni Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida katta mamnuniyat bilan tasvirlaydi. Saltanat sohibini qutlash bu voqeaga bag`ishlab tarix va qasida yozish Muhammad Rizo Ogahiy zimmasiga tushadi. Chunki o`sha davrda saroyda eng martabali inson Ogahiy edi. Uning 92 baytdan iborat “Mav`izatnomasi” yangi xonga atab yozilgan. Unda shoir yosh xonga davlatni adolat bilan boshqarish haqida pand-nasihatlar qiladi, buning uchun u tarixda o`tgan hukmdorlar faoliyatini taxt sohibi ko`z o`ngida jonlantiradi, ularning olib borgan ishlaridan to`g`ri xulosa chiqarishga da`vat etadi. Chunki u umri davomida 7 ta xon hukmronligini o`z boshidan kechirdi. Ogahiy davlatni adolat bilan boshqarishda zarur bo`lgan fazilatlar bilan birga, saltanatni parokandalikka olib keluvchi illatlar haqida ham ogohlantiradi. Ogahiy yosh xonga har tomonlama ustozlik vazifasini bajaradi. Muhammad Rahimxon II Ogahiyning shogirdi bo`lganidan faxrlanadi.



Komil ersam nazm aro Feruzdek, ersam ajab
Ogahiydur she`r mashq aylarda ustodim mening.

Bu misrasida ustoz Ogahiy ekanligini ta`kidlab o`tadi. Muhammad Rahimxon tabiatan bunyodkorlikka moyil. U ko`plab masjidlar, madrasalar, yoflar (kanallar), ko`prik va rabotlar barpo etgan. Ma`lumki, adabiy an`anaga ko`ra bunday inshootlar qurilishi munosabati bilan ta`rixlar bitilgan. “Ta`vizu-l-oshiqin”ga ana shunday 21 ta`rix kirgani ham buning dalilidir. Bu mavzuda nafaqat ta`rix, ko`plab boshqa janrlardagi she`rlar ham bitilgan. “Firdavsu-l-iqbol”da bu mavzu asosan masnaviyda qalamga olingan. Muhammad Rahimxon II 47 yil Xorazm vohasida davlat boshqardi, shuning o`ziyoq uning katta salohiyatli sultonligini, adolatparvar, ma`rifatparvar xon bo`lganligini ko`rsatadi. U ilm-ma`rifat ahliga erkin ijod qilishlari uchun shunday bir muhit yaratadiki, bu Xiva adabiy muhiti deya nom oldi. Muhammad Rahimxon II Feruz taxallusi bilan ijod qilib ulkan shoir bo`lib yetishdi. Arab va fors adabiyotining o`nlab eng go`zal namunalari tarjimasiga boshchilik qildi. Ogahiy xalq orasida ko`proq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti-“Ta`viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) 1872-yilda yozilgan bo`lib, bizgacha to`la yetib kelgan. Devon an`anaviy tartibda tuzilgan. Uning «Ta`viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori») deb nomlangan devonida yigirmadan ortiq janrdagi salkam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ogahiy Sharqning xilma-xil she`riy shakllaridan to`liq foydalangani holda ularda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri bilan bog`liq mavzularni haqqoniy aks ettirdi. Lekin shoir she`riyatining aksariyat qismi ishqiy mavzudadir. Ogahiy lirikasida ishq-muhabbat yetakchi motivlardan biridir. Bu motiv nafaqat ko`hna, an`anaviy, ayni vaqtda zamonaviy va betakror xususiyatlarga ham ega. Devonga “Ash`ori forsiy” nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she`ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundariyasi markazida ishq mavzusi yetakchi o`rin tutadi. Ishaq uning qalamida mavzuni yoritishida, o`z g`oyalarini ilgari surishda badiiy vosita bo`lib, she`riyatda ishq- iymon, e`tiqod, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o`y kechinmalari, faoliyati dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ogahiy an`anaviy ishq mavzuida qalam tebratgan shoir. U hayot, tiriklik va go`zallik mazmunini shu ishqdan axtargan va topgan. U ishq va muhabbat zavqini – insonni sevish, insonga mehr ko`rsatishda deb bilgan. Va shu ma`noda ko`rgan, bilgan haqiqatlarini xilma-xil ohanglarda she`rlarida aks ettirgan. Shu ishq uning qalbini ilohiy va samoviy hislarga oshno aylagan. Ogahiy doimo xalq dardi bilan yashagan shoir bo`lib, o`zining g`azallarida xalqparvarlik ruhini ilgari suradi. Ogahiyning xalqparvarligi va xalq holiga befarq emasligi uning “Qish” g`azalide o`zining yorqin



ifodasini topgan. Ogahiy davrigacha g`azal yozishda mavjud bo`lgan 7-8 hamda 10-12 baytli g`azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan.

Adabiyotimiz tarixida Ogahiy buyuk shoir sifatida tanilibgina qolmay, mohir tarjimon sifatida ham shuhrat qozondi. U 20 ga yaqin asarlarni tarjima qildi. Ular ichida “Ravzat us-safo”, “Tazkirayi Muqimxoniy”, “Tabaqoti Akbarshohiy” kabi tarixiy-ilmiiy, “Axloqi Muhsiniy”, “Nasihatnomayi Kaykovus” kabi axloqiy-didaktik asarlar barobarida Sharq adabiyotining ulug` klassikalaridan Nizomiy, Sa`diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Jomiy va boshqalar yaratgan o`lmas badiiy asarlar ham bor. Shularning biri qardosh tojik xalqining ulug` shoiri Abdurahmon Jomiy tomonidan yaratilgan “Yusuf va Zulayho” dostonidir. “Yusuf va Zulayho” Sharq adabiyotida Iskandar, Bahrom, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro, Layli va Majnun kabi keng tarqalgan, qayta-qayta qalamga olingan mashhur syujetlardan biridir. Go`zal Yusuf to`g`risidagi rivoyat birinchi marotaba yahudiylarning muqaddas diniy kitobi “Tavrot”da uchraydi. Bu syujet undan Qur`onga ko`chgan. Lekin dastlab diniy afsona tarzida maydonga kelgan bu rivoyatlar keyinchalik ulug` san`atkorlar diqqatini o`ziga jalb qilgan va turli xil nazmiy va nasriy yo`lda ishlanib, badiiy asarlar yaratilgan. Ogahiy tarjimasini uchun asos qilib olingan Jomiyning “Yusuf va Zulayho”si fors-tojik va turkiy tillarida shu mavzuda yozilgan asarlarning eng mukammali, ayni zamonda, badiiy jihatdan eng kuchlisi hisoblangan. Shuning uchun ham Jomiy qalami bilan yaratilgan “Yusuf va Zulayho” dostoni Yaqin va O`rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan va favqulodda shuhrat qozongan edi. Ogahiy o`z tarjimasida Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonining g`oyaviy asoslarini to`liq saqlab qoldi, badiiy xususiyatlarini ajoyib talant va mahorat bilan o`zbek tilida aks ettirdi. Garchi Ogahiyning tarjima uslubi va metodi hozirgi zamon tarjima uslubidan ma`lum darajada farq qilsa ham, lekin asarning asosiy g`oyaviy-badiiy xususiyatlari o`zgarmaydi, asar qiymatiga putur yetmaydi. Aksincha, Ogahiy o`zining zo`r badiiy iste`dodi orqasida haqiqiydan hech bir jihatdan qolishmaydigan o`zbekcha variantlarni yaratishga muvaffaq bo`ldi. Ogahiy tomonidan tarjima qilingan yana bir asar “Shoh va Gado” tojik xalqining talantli shoiri Badriddin Hiloliiy qalamiga mansubdir. Doston aslida 28 bobdan iborat bo`lib, 2288 misra she`rni o`z ichiga oladi. Ogahiy dostonning asosiy boblarini to`liq saqlagan holda, tarjimaning xususiyatlarini bayon qilib, yana bir necha bob o`zidan(“Bu qissa tarjimasining boisi”, “Bu kalomi xujasta farmon xatmu tavfiqining shukrguzorliqi...”) qo`shadi.”Shoh va Gado” dostoni yuksak ijtimoiy g`oyalarni tarannum qilgan, insonlar o`rtasida samimiylik, do`stlik, pok muhabbat kabi oliyjanob tuyg`ularning barqaror bo`lishini targ`ib qilgan o`tmishning yuksak badiiy durdonalaridan biridir.



Ogahiy doston zamirida yotgan mazmun pok ekanligini, “Shoh va Gado” munosabatlari yuksak insoniy tuyg`ularga ega bo`lgan samimiy do`stlik munosabatlari ekanligini qayta-qayta ta`kidlab o`tgan.

Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs-ul iqbol” asari 1825-yilgacha bo`lgan Xorazm tarixi bilan bog`liq voqealar tarixiy badiiy shaklda yoritilgan. 1988-yil amerikalik olim Y.Bregel(1925-2016) Munis va Ogahiyning “Firdavs-ul iqbol” asarini izohlar bilan ilmiy-tanqidiy matnini o`n yillik tanaffusdan so`ng, 1999-yilda esa ingliz tiliga tarjimasini nashr qildiradi. Asarning tili arabiy va forsiy iboralarga boy bo`lgani va o`ziga xos sharqona usulda yaratilgani bois, ingliz tiliga tarjimasi oson kechmagan. Y.Bregel bu ishda rus olimi Oleg Akimushkin, professor Robert Dankoff, doktor Irina Viktorovna Yerofeyeva, professor Boris Litvinskiy, Aleksandr Naymark, doktor Benno van Dalen, professor Devin Devis kabi sharqshunoslar bilan birga maslahatlashib ish olib borgan. Bu tarjima ishida bu olimlar Y.Bregelga katta yordam bergan. Y.Bregel asarning uslubi borasida: “Munis va Ogahiyning bayon uslubi sinkretik(aralash) xususiyatiga ega. Ogahiy va Munis ayrim an`anaviy tasvirlar: harbiy yurishlar, shohlarga xos jihatlarini yoritishda murakkab istioraviy bayon uslubidan, boshqa tasvirlarda oddiy uslubdan foydalangan”. P.P.Ivanov fikriga ko`ra : “Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari, boshqa tarixiy asarlardan o`zining nafis tili, mumtoz uslubi bilan farq qiladi”. Ma`lumki, Xorazmda XIX asrda tarixiy va badiiy asarlar yozishda o`ziga xos an`ana shakllangan, Munis boshchiligida maktab yaratilgan, kitobxonlik rivojlangan. Y.Bregel so`zboshisidan shu narsa anglashiladiki, asardagi she`rlar, asosan, XVIII-XIX asr Xorazm shoirlariga tegishli bo`lgan. 1972-yilda Y.Bregel asar nashrini Moskvada Sharqshunoslik institutida tayyorlashni boshlagan. “Firdavs-ul iqbol” asarining nusxasi Sankt-Peterburgda ham mavjud bo`lib, ular 1873-yilda Xorazm hujjatlari bilan birga Kun tomonidan Sankt-Peterburgga yuborilgan.Bu asar haqida sharqshunos olim Kun 2 ta maqola e`lon qilgan. Sankt-Peterburgdagi nusxalar bilan tanishtirishda Y.Bregelga rus olimi P.A.Gryaznevich yaqindan yordam bergan. Matni tayyorlash 1977-1978-yillarda Pristondagi ilmiy izlanish institutida yakunlangan. “Firdavs-ul iqbol” asarining Y.Bregel tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni 1988-yilda nashr qilingan.

Ogahiy hazratlari tomonidan yaratilgan asarlar juda sermazmun va po`rma`nodir. U asarlarida doimo xalqning holini bayon qiladi. Xiva xonligi tarixini o`rganishda Ogahiy tomonidan yaratilgan asarlar yetakchi o`rin tutadi. Ogahiy tomonidan yaratilgan asarlar bugungi kunda ham yoshlar ta`lim-tarbiyasi uchun asosiy manba bo`lib xizmat qiladi. Ta`lim-tarbiyaviy jihatidan Ogahiy g`azallaridagi



hayotni sevish, xalq holiga befarq bo`lmaslik, doimo izlanishda bo`lish, o`z Vatani uchun jonini fido qiladigan yosh avlod bo`lib yetishishga katta yordam beradi. Ogahiy tomonidan yaratilgan lirik asarlar, tarixiy asarlar va tarjima asarlarining barchasi mahorat bilan bayon qilingan. Ogahiy ijodi shoirlarimizning bir necha avlodlari uchun ijod maktabi bo`lib xizmat qilib kelmoqda. Biz yosh-avlod Ogahiy hazratlari asarlarini chuqur o`rganish orqali, o`z ma`naviy boyligimizni oshirib boramiz. Buyuk ajdodimizga munosib izdosh bo`lishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. S. Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi.-Toshkent.1963.
2. N. Komilov. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. Toshkent. 1970.
3. Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon. Maqolalar-Toshkent.1999
4. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar.5-jild.Tarixiy asarlar.
5. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar.4-jild.Badiiy tarjima.
6. Kaykovus. Qobusnoma.Toshkent.2019.
7. Muhammad Rizo Ogahiy.Asarlar. 3-jild. Tarjimalar.